

## MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTIDA AYOL OBRAZI

Axmedova Hafiza Hakimovna

*Buxoro muxandislik-texnologiya instituti litseyi bosh o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada hozirgi o'zbek adabiyotida ayol obrazining yaratilishi masalasi umumbashariy va milliy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ma'nan va ruhan yangilanayotgan qahramonlar sifatida o'zligini namoyon etuvchi jihatlarini ko'rsatib o'tilgan. Ayol obrazining asosi sifatida, uning estetik ta'sirdorligini, hayotbaxshligini ta'minlovchi kategoriya sifatida e'tirof etiladi va masalaning aynan mana shu jihatlariga e'tiborini qaratadi. Bundan tashqari asarlarda ayollar obrazi va uning o'ziga xos jihatlarini tahlilga tortadi va o'z munosabatini bildiradi. Ayollar obrazining adabiyotda o'rni nechog'li muhim ekanligi maqolada asarlarning tahlili orqali ham yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *ayol, ona, obraz, genenezis, tadrijiy rivojlanish, badiiy adabiyot.*

**Аннотация:** *В статье показана проблема создания в современной узбекской литературе образа женщины, воплощающей в себе общечеловеческие и национальные ценности и превращающейся в героиню, обновляющуюся умственно и духовно. Главными задачами в создании образа женщины является показ её эстетического влияния и животворности. Кроме того, на основе примеров произведений автор анализирует специфические стороны образа женщины и выражает свое отношение к этому вопросу. В статье через анализ произведений подчеркивается значение образа женщины в литературе.*

**Ключевые слова:** *женщина, мать, образ, генезис, постепенное развитие, художественный вымысел.*

**KIRISH**

Insoniyat adabiy tafakkuri hech qachon muhabbat haqidagi sof tushunchani jinslarning tavsiflovchi nomlariga qaratmagan. Balki, muhabbatni poklik va poklanishning o'ziga xos fazilatlari bo'lgan Anaxitaga o'xshatish bizning uzoq ajdodlarimiz "sevgi" va "ayol" tushunchalarini o'ylab topganligining ifodasidir. Ko'pda ayollar erki muammosining o'ziga xos xususiyatlari har doim siyosatning bir tomonini belgilaydigan oilaviy munosabatlar ko'rib chiqiladi. Bu savol yigirmanchi yillar adabiyotida ancha to'liq va chuqur aks etgan. Ayollar taqdiri o'zbek adabiyotining umumiy mavzusiga aylandi. Shunday qilib, keyingi yillarda boshlangan o'zbek yozuvchilarining ayol huquqlari masalasidagi muxolifati yozuvchilarning badiiy ongida tobora ko'proq ildiz otgan.

**ASOSIY QISM**

O'zbek adabiyotshunosligida ayollar obraziga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotni Maqsud Shayxzoda "Navoiy ijodida ayol obrazi" nomli maqolasi bilan boshlab berdi. U Shirin, Mehinbonu, Layli, Dilorom, Ravshanak obrazlarida jismoniy, ijtimoiy, aqliy, madaniy, jangovarlik xislatlari uyg'unlashganligini ta'kidlaydi. Sh.Abdullaeva esa "Xamsa"dagi ayollar obrazini alohida tadqiqot sifatida belgilab nomzodlik ishida o'rgandi. Olima asosiy e'tiborni jarayonda davr g'oyalaridan kelib chiqib, Alisher Navoiy o'zi bino qilgan obrazlar orqali feodal tuzum sharoitida ayollar haq-huquqlarining paymol qilinishiga qarshi kurashgan kabi

qarashlarni ilgari surgan. Alisher Navoiy dostonlaridagi ayollarning ilmi, oqila va malika darajasigacha ko'tarib ifodalanishiga shu jihatdan e'tibor qaratiladi. O'zbek ma'rifatparvarlari o'tmishda ayollarga qilingan zulm, ularning asir sifatidagi ahvoli, ma'naviy ruhiyatining bosiqliqi va jamiyatdagi mavqeyining yuksalishi masalasini chuqur ko'rib chiqqan. Bu davr adabiyotida ayollarning jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq turli masalalarga katta e'tibor qaratilib, unda parda (burqa)larni olib tashlash, ishda, o'qishda ayollar va erkaklarning tengligi va boshqalar yoritilgan.

Yigirmanchi yillar adabiyotida shoir va yozuvchilarining ayollar erkinligiga bag'ishlangan asarlarining asosiy mazmuni shakllandi. Ushbu yillar adabiyoti nafaqat ayollarning erkinligiga erishish yo'llari masalasiga, balki erkin ayol obrazini yaratishga ham e'tibor qaratdi. Bu davr shoir va yozuvchilarining asarlarida bunday meros namunalarini juda ko'p uchratish mumkin. Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti janrlararo shakllangan tasavvurlarning o'zgarishi, yaratilayotgan asarlarning nazariy qoliplarga tushmasligi bilan xarakterlanadi. Zero, ijod erkinligi degan tushuncha faqat qanday mavzuni qalamga olishga emas, balki qanday yozishga, ifodalashga ham tegishlidir.

Mustaqillik davri romanlari badiiyatida quyidagi o'ziga xos belgilar ko'zga tashlanadi:

- realizm o'zining yangi imkoniyatlarini aks etayotgani;
- janrlar aro mutatsiyasi va gibridlashuv hodisasi sodir bo'lgani;
- metaforik adabiy tafakkurning kengayishi;
- poetik metamorfozalarga e'tibor ortgani;
- o'quvchi tasavvur dunyosi muallif nigohi bilan uyg'unlashayotgani;
- uslub samimiyati o'quvchini o'ziga ergashtirib, milliy turmush sahnalari tasviri uning ichki olamida po'rtanalar hosil qilayotgani;
- syujet voqealari va vaziyat-holatlar tasviri mozaika bo'laklari singari berilib, ramzlar tevaragida jipslashib rivoj topayotgani;
- poetik ifoda inson xayolotini yangi dunyolarga yetaklashi;
- gumanistik pafos teranlashayotgani[3].

Bevosita zamonaviy o'zbek adabiyotida ayollar erkinligi masalasi ma'lum bir mavsumiy xarakterga ega bo'lganligi sababli, shoir va yozuvchilar bu borada muhim badiiy yuksaklikka erisha olmagan deb o'ylaymiz. Bu mavzuda adabiy merosda olib borilgan targ'ibot maqsadida yozilgan asarlarni badiiylik jihatdan mahrum etdi. Boshqacha aytganda, bu davr adabiyoti, xususan, nasrda ayol adibalar Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergasheva kabilarning asarlar bundan mustasno. Ungacha ko'plab ijodkorlar ijtimoiy nuqtai nazardan ayollar erkinligining mohiyatini ochib bera olmadi. Chunki ayol qalb kechinmalarini tushunish uchun yo ayol bo'lishi kerak, yo ayolga qalban yaqin bo'lish kerak.

Adibalar asarlari kompozitsiyasini iloji boricha mukammal shakllantirishga harakat qiladi. A.Fitrat o'zining «Adabiyot qoidalari» asarida kompozitsiyani «tartib» deb keltiradi. «Mundarija yaxshi tartib etilgan sayin asarning qimmatini ortadir, yozg'uvchini muvaffaq bo'lishig'a yaqinlashtiradir. Tartib mundarija uzra yurgiziladir. Shuning uchun mundarija yetarli darajada yig'ilib tollang'andan keyingina tartibga kirish kerak. Tartib yolg'uz asar yozish emas so'z so'ylashda ham muhimdir»[4]. A.Fitrat asarning mavzu va g'oyasini muallif chuqur anglashi hamda bo'limlarni tartib mahorati orqali strukturasi ko'zda tutibgina qolmay, obrazlarning nutqini ham ma'lum darajada tartibga solish, har bir yozilgan so'z o'zida ma'no

tashish funksiyasini bajarishi lozim ekanligini uqtiradi. Yozuvchi Zulfiya Qurolboy qizining “Armon asirasi” romani ana shunday ijodiy tajribaning hosilasi o‘laroq dunyoga kelgan asardir. Unda romanik tafakkur yaqqol sezilmay, o‘rta qatlam kishilarining oddiydan ham jo‘n tashvishlari, millat tarixiy taraqqiyotiga daxldor ulkan ijtimoiy voqealar, siyosiy evrilishlar emas, balki o‘z mavjudligini ta‘minlashga ham qurbi yetmaydigan nochor, kunini ko‘rishga zo‘r berib urinayotgan, ammo shuni ham uddalay olmayotgan kishilarning ayanchli taqdiri va qiyofasi kompozitsion jihatdan mukammallik kasb etadi. Adabiyotshunos M.Qo‘shjonov kompozitsiya tushunchasini badiiy asar mantig‘i bilan bog‘lab o‘rganadi. Bunda asar kompozitsiyasining mukammal ko‘rinishi, ijodkorning diqqat markazi muhim rol o‘ynashini anglatadi. “Bizningcha, kompozitsiya badiiy asarda ijodkor diqqat markazining, uning oldida turgan badiiy vazifaning aniqligi, shunga nisbatan asardagi katta va kichik qismlar hamda obrazlarning joy-joyiga qo‘yilishi va ijodkor tomonidan o‘sha markaz va badiiy vazifaga nisbatan tasvir me‘yori va muvofiqligiga rioya qilishdan iboratdir, deb qarash kerak”[5]. Olim ijodkorning e‘tibori badiiy jihatdan yuksak bo‘lsa, asar qismlari butunligicha adabiy maqsadini ochishga bo‘ysundirilsagina asar kompozitsiyasidagi tasvirda me‘yor va muvofiqlik tushunchasi mukammal ishlanadi, deya fikrini ifodalaydi. Kompozitsiyaning yana muhim muammolaridan biri kompozitsiya unsurlarining muvofiqligidir. Biroq muvofiqlik g‘oyat nisbiy tushuncha sanaladi. Mavhum va nisbiy muvofiqlik xususida gapirish mumkin emas. Biror predmetning nimagadir, kimgadir muvofiqligi xususidagina gap bo‘lishi mumkin. Badiiy asar haqida so‘z borar ekan, ayrim detallar, epizodlar va kartinalarning tip, xarakter va obrazlarga mavjud asardagi yozuvchining badiiy niyatiga muvofiqligi haqidagina fikr yuritish mumkin.

Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari” romanida ONA: Hamrobuvi kabi qahramon tutumlari orqali oilaning naqadar yuksak darajasini, unga doimo sadoqat bilan munosabatda bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Hamrobuvi obrazi orqali oilada farzand tarbiyasi, xususan qizlarni oilaga tayyorlash masalalari mahorat bilan yoritilgan. Shuningdek, oila ma‘naviyatini yuksaltirishda ayollarning mavqei haqida gap boradi. Asarda bosh qahramon sifatida gavdalangan Nazira ham boshqa ayollar singari o‘z oilasi, sevimli yori, baxtdan masrur yashash umidi bilan Jalilga turmushga chiqqan edi. Hamrobuvining qanchalik oyoq tirib olishlariga qaramasdan “ushlagan joyini uzib oladigan” Rajab momo singari ayollar Hamrobuvining nozik joyi turmush o‘rtog‘idan qolgan bog‘ini gullatib, yashnatish niyati borligi bilan Nazirani o‘ziga kelin qilishga muyassar bo‘ldi. Bu va‘dalar aslida sarob ekanligini Hamrobuvi sekin-astalik bilan anglab yetadi. Adiba “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari”da Nazira obrazi misolida yosh kelinlarning ko‘ngil qa‘ridagi nozik qarashlari, tuyg‘ularini, o‘zga oilaga singish, ko‘nikish, moslashish masalalarini ochib beradi. Har qanday yosh kelin o‘z oilasi bag‘ridan boshqa oilaga borganida o‘sha oilaning past-balandiga ko‘nikib yashashi va ularga singib ketishi ham ahamiyatli. Asarda mana shu holatlar badiiy tasvir vositalari orqali yoritilgan. Darhaqiqat asarda Nazira shu oilani o‘z oilasidek, qaynonasi va turmush o‘rtog‘ining ko‘nglidan joy topish ilinjida tinmay mehnat qiladi, unga erishish yo‘lida o‘zini azoblasada qat‘iyatli bo‘ladi. Ha undagi bu kabi jasorat, oilaparvarlik tuyg‘ularini adiba asar voqealari rivojida ko‘rsatib beradi. Xalqimiz orasida shunday naql yuradi: “Xotinning yomoni – erning zavoli, Xotinning yaxshisi – erning kamoli” yoki “Yaxshi xotin arpa unni kabob qilar, Yomon xotin bug‘doy unni xarob qilar”. Nazira huddi shunday yo‘qdan bor qilguvchi ayol edi. Ha Nazira mana shunday tejamkor, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaydigan, har bir ne‘matni

asrab-avaylashga odatlangan ayol edi. Asar voqealari rivoji o'quvchini yanada o'ziga rom qilib qo'yadi. O'quvchi o'zini qahramon olamida, u bilan yonma-yon, dardu xasratlariga sherik, baxtdan masrur onlarida baxtiyorlik tuyg'ulariga sherik bo'ladi. Asar syujetidan ko'rishimiz mumkinki, Hamrobuvi qizlar tarbiyasiga juda qattiq turganligi, bo'sh vaqtlarining taqsimotiga e'tiborli bo'lganligi, uy-yumushlariga, saramjon-sarishtalikka, ozodalikka qizlarini o'rgatganligini ko'rish mumkin. Bir oilada tarbiya ko'rgan, kamolga yetgan opa-singillar xarakter jihatidan esa hech bir-birlariga o'xshamas edi. Naziradagi mehnatkashlik, tirishqoqlik, qat'iyatlilik, jasoratlilik singari fazilatleri singlisi Orzugulda yo'q edi. Unda xudbinlik, manmanlik fazilati baland ko'rinardi. Asar voqealari rivojida Rajab momo xarakteriga keng urg'u qaratilib, uning tabiati orqali ko'plab millat ayollaridagi illatlar yoritilib boriladi. Asarda oilaga o'zgacha mehr-sadoqat bilan yondashgan inson baxtdan to'yib yurishini o'quvchiga singdirish yo'lidan boriladi. Shuningdek, oilani muqaddas deb bilmagan kimsalarning oxir oqibat jaholatga yuz tutishini Jalil va Jo'rabek singari obrazlar orqali ko'rsatib beriladi. Asarda oila ustunlaridagi "zaif" tomonlarini ochib berish barobarida, ayollar zimmasida oila, ro'zg'or yuki, farzandlar tarbiyasi va shunga o'xshash yana bir qator vazifalarning yuklatilishini ta'rif etadi. Shu o'rinda Tursunoy Sodiqova ta'rif etganlaridek: "... U erkakdan bir qadam ilgari ketdi. Hali ketmonga, hali ignaga, hali bozor xaltasiga osilib, ro'zg'or yuritish dardida qoldi... Biz bolalarimizga otasini ustivor ko'rsatib, unga ergashtirib tarbiya berish bilan ro'zg'orni butun ushlab kelganmiz. O'zbekning erkagi oriyatli, bir so'zli, g'ayratli, qo'li gul, ro'zg'orparvar bo'lguvchi edi, asliga qaytish shart!"[6]. Adiba oila ma'naviyatining ustunlarini asrash, avaylash barobarida ularga yelkadosh bo'lishga chaqiradi. Oilaga, ayolga xiyonat qilgan er kishining oxir boradigan makoni jaholat ekanligini ko'rsatib beradi.

"Armon asirasi"da o'zligini saqlash, o'z qiyofasiga ega bo'lish imkoniga ega bo'lmagan odam, uni hamisha turlanib-tuslanishga majbur etadigan vaziyat va shu holatda tirikchilik o'tkazishga mahkum shaxslarning mavjudligidagi fojiviylik va ularning ruhiyatidagi nozik jihatlar ulkan hayrixohlik bilan tasvirlangan. Ayni vaqtda asarda har qanday murakkab sharoit ham chinakam odamning shaxsiyatidagi asl sifatlarni o'zgartira olmasligi aks etgan Hozirgi ko'pchilik romanlarda oldingidagiday tipik sharoit va umumlashma obrazlarni emas, istalgan bir holatdagi duch kelgan mayda va qiyofasiz insonlarni ham tasvir fokusiga olaveradi. Adiblar turg'un xarakterlardan ko'ra, o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalashga ko'proq intilishadi. Milliy romanchilikda o'jiz, kuchsiz, azoblarga mahkum. Individlarni tasvirlash tamoyili kuchayib borayotganligi ularning kitobiylikdan qutulib, hayotga yaqinlashishiga sabab bo'lmokda. Chunki kecha badiiy e'tibordan chetda bo'lgan "kichkina odam"ning ko'ngil olami aslida bepoyon ekani anglab yetildi. Insoniy taqdirlarning evrilishi tarixi ko'rsatmoqdaki, "katta" bilan "kichkina" odam o'rtasidagi oraliq, ko'pincha, bir qarich xam chiqmaydi. "Armon asirasi" asarida favqulodda holatga tushgan odamlarning tarang ruhiy holatlari, shu asnodda ularning tabiatidagi ro'y bergan hissiy-ma'naviy o'zgarishlar mahorat bilan ko'rsatilgan. Jumladan, asarda yuqchilik tufayli o'zbek ayolining o'zidagi ezgu sifatlardan ayrilib borish jarayoni ta'sirli aks ettirilgan. Ma'naviyat juda yuksak tushuncha, lekin u o'zgarimas va turg'un hodisa emas. Odamdagi ma'naviy sifatlarning hayotning o'zida, uning ta'sirida shakllanadi, o'zgaradi, yuksaladi. Romanda to'g'ri yo'lga qo'yilmagan hayot odamning moddiy holatidagina emas, balki ma'naviy-axloqiy sifatlariga ham salbiy tasir ko'rsatishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Zulfiya Qurollboy qizi obrazlar mohiyatining yorqin aks ettiradigan qirralarini yaxshi biladi. Shuning uchun ham u asar kahramoni Nasibaning ruhiyatidagi evrilishni birgina ovoz detali orqali to'liq ko'rsata olgan. Romanda soddagina Nasiba o'zini tekshiradigan, xatti-harakatlarini taftish qiladigan uy kishisi sifatida tasvirlanadi. Nasiba timsolida adoqsiz mashaqqat, so'ngsiz azoblar ham ezgulikka umid va odamlarga ishonch tuyg'usidan ayirolmagan o'zbek ayoli tasvirlanadi. Oilasi tinchligi, bolalari sog'ligi, erining xotirjamliginigina o'ylaydigan bu ayol dunyo muammolarini hal etishni da'vo qilmaydi, shohona hayotni orzu qilmaydi, odam qatori yashashnigina istaydi, xolos. U qahramon ham, donishmand ham, buyuk ham emas. Lekin u odamning tirikligi faqat azoblardan iborat bo'lishi mumkin emasligini biladi, odamlarga ishonadi va ezgu kunlar kelishiga chindan umid qiladi. Ana shu umidi uni ulug'laydi. Zero, shayton va uning yo'lidan ketayotganlargina umiddan mahrumdirlar.

Asar boshida Nasibaning bir kunlik hayoti bilan tanishamiz. U har qanday o'zbek ayoli sifatida eriga sadoqatli, mehrlil ayol sifatida gavgdalanadi. Biroq asarda Nasibaning o'y-xayollari va kechinmalari, voqealarga bo'lgan ruhiy holatlari to'liq yoritilmaydi. Voqealarga bo'lgan munosabatini e'tiborga oladigan bo'lsak, Nasiba xarakteri ham to'liq ochib berilmaydi. Yozuvchining mahorati shundaki, xulosa chiqarish va uning ruhiy holatini anglab yetishni kitobxonning o'ziga qoldiradi.

Biz asarni o'qir ekanmiz, Nasiba yaqinda uch xonali uyni ikki xonali uyga almashtirib o'z qarzlarini to'lagan, biroq kelajagini yaratish uchun qo'lida qolgan puli yetarli emasligi ayonlasha boradi. Biz bu holatlarni Lola ismli ayolning Nasibaning uyiga kelishi va undan qarzini talab qilishi orqali bilib olamiz. Nasiba asar boshida o'z qarzlarini to'lashga astoydil kirishadi. Hatto ro'zg'orini tebratish uchun eski kiyimlar bozoriga chiqib savdo kilishga majbur bo'ladi. Turmush o'rtogi bor bo'lsada, biroq Nasiba unga suyana olmaydi. Natijada uning ruhiyatida o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. Qachonlardir erini butun jahonda yagona suyanchiq tog' sifatida ko'rgan bo'lsa, asta-sekinlik bilan Donishga bo'lgan munosabati o'zgara boshlaydi. Uning har doim ichib kelishi, ro'zg'or tebratish uchun qarzga botishi, Nasiba bergan pulni o'g'irlatdim deb kelishi Nasibani butkul o'zgartiradi. U bozorga chiqa boshlagandan so'ng esa Donishga umuman ishonmay kuyadi. Uning ko'liga pul berishni istamay koladi. Keyinchalik bu ishidan pushaymon yeydi va kilgan ishining jazosi sifatida Talgat ismli begona erkakni boqishga o'zini majbur deb hisoblaydi.

Yozuvchi Nasibaning xatti-harakatlari orqali uning ruhiy holatini bera boshlaydi. "Pulni... yo'qotib... ko'ydingizmi?... Qorachiqlari kengayib ketgan Nasiba dahshat ichida pichirladi.

- Oldirib... ko'ydim... - yerga qaragancha ming'irladi Donish, xayolida esa: "Chindanam kuppa-kunduzi tunab ketdi-ku, Jamshid!.." degan o'yni o'tkazdi.

- Sho'rim qursin...

Yuzi qordek oqargan ayol devorga behol suyandi. Bir daqiqadan keyin peshonasida reza- reza ter tomchilari paydo bo'lib, lablari atrofi ko'karib tez-tez, qisqa-qiska nafas ola boshladi. Senga nima bo'ldi? Bilmadim... Bo'shshib ketyapman,- dedi Nasiba zo'rga. Birpas yotib dam olsang, o'tib ketar. Yur-chi Donish xotinini suyab yotoqxonasiga olib o'tdi. U Nasibaning ahvolini ko'rib qo'rqib ketgandi: "Bu mening yolg'on so'zlarimga o'rganib qolgan. Rost gapni ko'tara olmadi, bechora..."

Nasiba bir soatdan mo'lroq inqillab, oh urib yetdi. Keyin asta-sekin tinchlana boshladi. Yana biror soat yotib ayol butkul tinchib qoldi. U shiftga tikilganicha tek qotib yotar, na vujudi, na vujudidagi biror tuk "qilt" etardi Donish bu ahvoldan battar qo'rqdi.

- Nasiba, tuzuk bo'lib qoldingmi yo do'xtir chaqiraymi? - deb so'radi u bir necha marta. Nasiba esa miq etmasdi. Ammo qo'rqinchli tush ko'rib uyg'ongan odamday ko'zlari olayib Donishga qarab qo'yardi" Ushbu parchadan ko'rinib turibdiki, adiba oxirgi umidadan ajralib qolgan inson a'el ruhiyatini juda tiniq va ishonarli tasvirlay olgan. Nasiba oxirgi qolgan pullarini Donishga bergan, biroq Donish har safargidek, Nasibani aldaydi. Nasibaga esa bu oxirgi tomchi bo'lib qo'yiladi va bu holatni boshqa ko'tara olmaydi. Shu sabab uning ahvoli o'zgaradi. Rangi oqarib tez-tez nafas ola boshlaydi. O'zini yomon his etadi. Shu ahvolda ham Donishga har qanday so'z aytmaydi. Tongga yakin ahvoli biroz yaxshilanadi va ayol o'z ishlari bilan band bo'ladi. Adiba ayolning ahvolini ko'rsatish uchun ham mimikadan unumli foydalanadi. O'quvchi esa o'z navbatida Nasibaning ahvolini ko'z oldida jonlantira oladi. Atoqli munaqqid Umarali Normatovning kuyidagi mulohazalari fikrimizni yana bir bor isbotlaydi: "...Armon asirasi Nasibaning qalb sahovati, ezgulik yo'lidagi fidoyiligi va bu noyob hislatlarining hayotbaxsh yog'dulari asarning asosiy pafosini belgilaydi. Shunisi ham borki, romanda bu umidbaxsh ruh hech qanaqa dabdabasiz, osoyishta, tabiiy bir yo'sinda namoyon bo'ladi.

Zulfiya Kurolboy qizi ijodkor o'z davridan tashqarida, uning ta'siriga berilmay turolmasligini Hulkar misolida yorqin ifoda etadi. Bunda u Hulkar Armon tabiatidagi o'ziga xosliklarni ko'rsatish yo'lidan boradi va uddalaydi ham. Hayotning kundalik ikir-chikirlari shunchalar qudratliki, imoni butun bo'lmagan odam o'zi istamagani va bilmagani tarzda uning oqimiga tushib qolishi xech gap emasligi Hulkarning ijodi misolida ko'rsatiladi. Hulkar asarning boshidan oxirigacha o'z o'rniga ega bo'lgan obrazlardan biri.

Qismat va inson munosabati haqidagi bahs romanning boshidan-oxirigacha davom etadi. Asardagi xar bir qahramonning taqdiri o'sha munosabatlarning biror yo'sinda namoyon bo'lishidir. Roman qismatni kutib yotishini emas, balki uni munosibroq qilish uchun tinimsiz intilish, qiyinchiliklar og'ushida tozarish kerakligiga o'quvchini ishontira boradi. "Armon asirasi"da milliy romanchilikka yangilik bo'lib ko'shiladigan jihatlar anchagina. Zuhra, Talgat, Nasiba, Xulkar va ayniqsa, Donish kabi personajlarni o'zbek adabiyotidagi yangi hodisa deyish mumkin. Zulfiya Kurolboy qizi shaxsni tasvirlashni maqsad qilib quygan romanida inson alohida bir qadriyat emas, balki shunchaki, ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi darajasiga tushgan sharoitda uning qiziqish-u intilishlari ham maydalashib ketishi ta'sirli aks ettirilgan. Darhaqiqat, mustaqillik yillariga kelib adabiyotimizda, nasrimizda ham ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlangani rost. Nasrning barcha janrlarida, xususan, hikoyachilik, qissachilik va romanchilikda ham sifat jihatidan yangilanishlarga sabab bo'lgan urinishlar ro'y bera boshladi. O'tgan chorak asrdan ziyod vaqt mobaynida yuzlab romanlar yaratildi[7]. Ularning o'zbek romanchiligini taraqqiyotidagi hissasi katta. Bundan tashqari, ularning badiiy baquvvat namunalarida adabiy estetik tafakkur yangilanishiga, inson ruhiyatini, ma'naviyati va kechinmalarini yangicha poetik idrok etishga harakat kuchayganligini sezish mumkin. Zurfiya Qurolboy qizining "Mashaqqatli hayot so'qmoqlari", "Armon asirasi", "Mashaqqatlar girdobi" kabi romanlari, hamda uning hikoya va qissalarida ayol obrazi yetakchi qahramon sifati

tasvirga tortilgan. Ayni paytda ular o'z kechmishi orqali ta'bir joiz bo'lsa, qismat darajasiga ko'tarilgan qahramonlar hisoblanadi.

#### XULOSA

Shu o'rinda ta'kidlash zarurki, ayol obrazi va ayol qismati degan tushuncha bir xil tushuncha emas. Jarayonda adiblar tomonidan ishlanayotgan asarlarda ayrim istisnolarni hisobga olmaganda ayollar ko'proq juftlikning biri yoki yordamchi obrazlar sifatida gavdalanadi. Yuqorida tilga olingan adiba asarida esa ayol qismatini tasvirlash yetakchi planga ko'tariladi. Alohida ta'kidlash zarurki, adiba tomonidan yaratilgan romanlarda ayol qismati har doim ham mukammal xarakter darajasiga ko'tarila olmaganligi, ba'zan hayotdagi ayollarimizning naturalistik qiyofadoshlariga aylanib qolayotganini, tom ma'noda estetik hodisaga aylantirishda iste'dodlari pand berayotgani ham seziladi. Shu o'rinda bir savol tug'ilishi mumkin. Nima uchun adibalarimiz tomonidan yaratilayotgan romanlarda ayol obrazi qismat darajasidagina tasvirlashga e'tibor qaratilgan. Ularning turmush chig'irig'i orasida o'ralashib qolgan siymolarini ifodalash bosh maqsadga aylanmoqda. Albatta, bu holning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik sabablari ham talaygina.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shayxzoda M. Navoiy ijodida ayol obrazi. – Toshkent, Adabiyot va san'at, 1972. – B. 58–68.
2. O'razbaeva M. Hozirgi o'zbek romanchiligida ayol obrazi va uning qiyosiy tahlili. PhD diss. – Toshkent. 2021. – B. 17. Abdullaeva Sh. Alisher Navoiyning xotin- qizlar haqidagi gumanistik fikrlariga doir (Xamsa asarida). Filol. fan. nomz...diss. – Toshkent, 1954. – 119 b.
3. Yoqubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. – Toshkent: 2018. – B. 256.
4. Fitrat. Tanlangan asarlar. 4-jild. Toshkent: Ma'naviyat, 2006.-B.17.
5. Qo'shjonov M. Hayot va mahorat. Toshkent, 1962. -B.16.
6. Sodiqova T. Ayolga qasida. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2008. – B. 326.
7. Yakubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi. Filol. fan.d- ri... diss. – Toshkent. 2018. – B. 281–293.